



NUTQ NUQSONLARI TASNIFLARI , DISLALIYA VA UNING TURLARI.

Otajonova Pokizabegim Sanjarbek qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Maxsus pedagogika yo'nalishi 4 kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada logopediya fani, uning tasniflari va turlari, shuningdek nutq buzilishlari haqida batafsil soʻz boradi. Asosan maqolada eng keng tarqalgan nutq buzilishi — dislaliya, uning xususiyatlari, turlari va ularni aniqlash usullari yoritilgan. Maqola nafaqat nazariy ma'lumotlarni, balki amaliy tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Аннотация: В статье рассматривается логопедия, её классификации и виды, а также различные нарушения речи. Особое внимание уделено наиболее распространённому нарушению — дизлалии, её особенностям, видам и методам выявления. Статья содержит как теоретическую информацию, так и практические рекомендации.

Annotation: This article explores the field of speech therapy, its classifications and types, as well as various speech disorders. It mainly focuses on the most common disorder — dyslalia, including its characteristics, types, and methods of identification. The article provides both theoretical insights and practical recommendations.

Kalit so'zlar : nutq nuqsonlari , tasniflar , dislaliya , mexanik , funksional , pedagogik qarovsizlik.

KIRISH

Logopediya bu — nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta'lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o'rganish, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fandır. Logopediya nutq faoliyati buzilishining sabablari , mexanizmlari , alomatlari , oqimlari tarkibini o'rganadi . Shuning uchun uni maxsus pedagogika sirasiga qo'shadilar.

Hozirgi davr mamlakat logopediyasida nutq buzilishlarining ikkita tasnifi o'rin olgan: bittasi — tibbiy pedagogik, ikkinchisi -psixolog-pedagogik yoki (R.Ye. Levina bo'yicha). Qayd qilingan tasniflar nutq buzilishlari tipologiyasi guruhlarda farq bo'lgan holda bir xildagi holatlarni turli nuqtayi nazardan o'rganadi, lekin ular bir-biriga qarshilik qilishdan ko'ra bir-birini ko'proq to'ldiradi.

Tibbiy pedagogik tasnif:

1.Og'zafi nutq buzilishlari:

- afoniya
- bradilaliya
- taxilaliya
- rinolaliya
- alaliya
- afaziya
- dizartriya
- dislaliya

2. Yozma nutq buzilishlari:



- aleksiya
- disleksiya
- agrafiya
- disgrafiya

Psixologik pedagogik tasnif :

1.Muloqot vositalarining buzilishi:

- FNR
- FFNR
- NTR

2.Muloqot vositasining qollashni buzilishi:

- Duduqlanish

Dislaliya termini grekcha soʻzdan olingan boʻlib, dis — buzilish, lalia -nutq degan maʼnoni anglatadi.

Dnolaliya nutq buzilishlari orasida eng koʻp tarqalgan kamchilikdir. Y.F . Rau maʼlumotiga koʻra, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar maktabgacha yoshdagi bolalarda 15 — 20% ni, kichik maktab yoshdagi bolalarda 5 — 7% ni tashkil etar ekan.

M .N. Aleksandrova maʼlumotiga koʻra Rossiyada 5—6 yoshli bolalarda sirgʻaluvchi tovushlar (s, z, s) 23%, shovqinli tovushlar (sh, j) 24%, afrikat tovush (ch) 13%, “r” tovushi 26%, “l” tovushi 10%, jaranglilar 4,5%, “y” tovushi 1,5%, til orqa tovushlar 1% koʻrsatkichlarda notoʻgʻri talaffuz etilishi koʻrsatiladi.

Hozirgi davrda “dislaliya” termini xalqaro xarakterga ega boʻldi (uning mazmuni hamda u aniqlagan buzilish turlari doimo mos kelmasa ham). Bu kelishmovchilik buzilishlarni aniqlashda tadqiqotchilarning qanday taʼriflashni asos qilib olishiga bogʻliq: anatomo-fiziologik, psixologik yoki lingvistik. Klinik mezonlarni odat boʻyicha taʼrifiashda dislaliya turlarini turli talaffuz buzilishlari koʻpincha qator qoʻyilgan deb koʻriladi. Psixologik va lingvistik mezonlar asosiga qoʻyilgan dislaliya tushunchasiga, goh uning turli forma va turlari, goh fonetik va fonetiko-fonematik talaffuz buzilishlari kiritiladi (masalan, R.Ye Levina ishlarida).

Mexanik (organik) dislaliya periferik nutq apparatning (til, jagʻ , tanglay, tish) oiganik buzilishi natijasidir.

Til tagidagi etning (yugancha) kaltaligi mexanik dislaliyaga sabab boʻladi. Bu kamchilik til harakatini qiyinlashtiradi, til tagidagi etning haddan tashqari kalta boʻlishi tilning yuqori tomon koʻtarilishiga imkon bermaydi. Bundan tashqari, tilning haddan tashqari katta boʻlishi yoki haddan tashqari kichik va torboʻlishi ham dislaliyaga olib keladi. Bunday hollarda toʻgʻri artikulatsiya qiyinlashadi.

Jagʻ tuzilishidagi kamchiliklar prikus nonormalliklaiga olib keladi. Nonormal prikuslar bir necha xil koʻrinishda boʻlishi mumkin.

Prognatiya — yuqori jagʻ oldinga tomon chiqqan boʻladi. Buning natijasida pastki oldingi tishlar yuqoridagi tishlar bilan biriashmaydi.

Progeniya — pastki jagʻ oldinga chiqqan boʻladi.

Ochiq prikus — yuqori va pastki jagʻlar birlashganda ular orasida oraliq masofa qoladi. Ayrim hollarda bu oraliq faqat oldingi tishlar orasida boʻladi (oldingi ochiq prikus).



Yoni ochiq prikus — o'ng tomonli, chap tomonli va ikki tomonli bo'lishi mumkin.

Tishlarning (tish qatorining) — noto'g'ri tuzilishi ham dislaliyaga sabab bo'lishi mumkin. Tishlar va jag'dagi kamchiliklarni bartaraf etish shifokor stomatolog tomonidan olib boriladi.

Tanglayning noto'g'ri tuzilishi — tovushlarning to'g'ri talaffuziga xalaqit beradi tor, baland yoki past, yassi tanglay ko'pchilik tovushlarning to'g'ri artikulyatsiyasiga imkon bermaydi.

Lablarining qalinligi — ingichka va kam harakatchanligi ham lab va lab-tish lovushlarini aniq talaffuziga xalaqit beradi.

Funksional dislaliyada periferik nutq apparatining artikulyatsion qismida hech qanday organik buzilishlar, kamchiliklar kuzatilmaydi.

Funksional dislaliyaning keng tarqalgan sabablaridan biri oiladan nutqini noto'g'ri shakllantirishdir. Ayrim oilalarda kattalar bola nutqiga taqlid qiladilar. Bolani suyib u bilan "bola tilida" so'zlashadilar Buning natijasida bolada tovushlarning to'g'ri talaffuzi kech rivojlanadi. Dislaliya holalarda taqlid asosida ham yuzaga kelishi mumkin. Tovushlartalaffuzi hali yetarli, to'g'ri shakllanmagan kichik yoshdagi bolalar bilan, tili chuchuk yoki noaniq, tez shoshib gapiradigan kishilar bilan doimo muloqotda bo'lishi bola nutqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha hola oilada tovushlarni noto'g'ri talaffuz etuvchi kishi nutqiga taqlid etadi. Bu esa funksional dislaliyaga sabab bo'ladi.

Oiladagi ikki tillilik, pedagogik qarovsizlik ham funksional dislaliyaga sabab bo'ladi. Bunda tovushlaiga e'tibor bermaslik, boladagi kamchiliklarni to'g'irlamaslik, to'g'ri va aniq talaffuz namunalarini bermaslik hollari ko'zda tutiladi.

Dislaliya artikulyatsion apparat a'zolarining (til, lab, pastki jag') harakatchanligidagi kamchiliklar natijasida ham sodir bo'ladi. Bu hol bolaning tilni kerakli holatda ushlab tura olmasligi yoki bir harakatdan ikkinchi harakatga tez o'ta olmasligida namoyon bo'ladi.

Dislaliya funksional eshituvning pasayishi natijasida ham paydo bo'lishi mumkin.

Dislaliya artikulyatsion apparat a'zolarining (til, lab, pastki jag') harakatchanligidagi kamchiliklar natijasida ham sodir bo'ladi. Ota-onalarimizga bolalariga to'g'ri tarbiya berib, bolalar tilida emas balki adabiy tilda gapirishini so'raymiz, uning nutqiga, rivojlanishiga e'tiborli bo'lishlarini so'rab qolamiz. Shundagina bolalar to'liq va ravon gapiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xamidova .M.U. Maxsus pedagogika – Toshkent. “ Fan va texnologiya “, 2022
2. Ayupova M.U. Logopediya – Toshkent . “ O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti” , 2022.
3. Po'latova .P.M, Nurmuhammedova. L.SH – Toshkent . “Fan va texnologiya “, 2014
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Dislaliya>
5. <https://interonconf.org/index.php/brs/article/download/710/673/661>
6. <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/download/2832/4181/7745>